

**SHARQ ADABIY MEROSIDA STRATEGIK LIDERLIK:NAVOIY QALAMIDA
"ISKANDAR" OBRAZINING BADDIY-FALSAFIY TALQINI**

*Turabekova Laylo Shavkat qizi,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi
turabekovalayloshavkatovna@gmail.com*

Annotatsiya. Maqola "Sharq adabiy merosida strategik liderlik: Navoiy qalamida Iskandar obrazining badiiy-falsafiy talqini" nomi bilan yozilgan bo'lib, u Alisher Navoiy asarlarini o'rganish va ularda Iskandar obrazining tasvirlanishiga qaratilgan chuqur tahlilni taqdim etadi. Shuningdek, Navoiy asaridagi Iskandarni faqat tarixiy shaxs sifatida emas, balki strategik lider sifatida tahlil qiladi va uning obrazini badiiy va falsafiy jihatdan o'rganadi.

Kalit so'zlar. Badiiy-falsafiy tafakkur, konsepsiya, metodologik nazariya, ilohiy adolat, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar.

**DOĞU EDEBİYAT MİRASINDA STRATEJİK LİDERLİK: NAVAY'IN
"ISKANDAR" İMAJİNİN SANATSAL-FELSEFİ YORUMU**

*Turabekova Layla Shavkat kizi,
Semerkant devlet yabanci diller enstitüsü öğrencisi*

Özet. "Doğu'nun Edebi Mirasında Stratejik Liderlik: Nevai'nin Kaleminde İskender İmgesinin Sanatsal ve Felsefi Yorumu" başlıklı makalede, Ali Şir Nevai'nin eserleri ve bu eserlerdeki İskender imgesinin tasviri derinlemesine bir şekilde inceleniyor. Nevai'nin eserinde İskender'i sadece tarihsel bir figür olarak değil, aynı zamanda stratejik bir lider olarak da ele alıyor ve onun imgesini sanatsal ve felsefi açıdan inceliyor.

Anahtar kelimeler. Sanatsal ve felsefi düşünce, kavram, metodolojik teori, ilahi adalet, manevi ve ahlaki değerler.

**СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЛИДЕРСТВО В ВОСТОЧНОМ ЛИТЕРАТУРНОМ
НАСЛЕДИИ: ХУДОЖЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ
ОБРАЗА «ИСКАНДАРА» НАВОИ**

*Турабекова Лейла Шавкат кызы,
Студентка Самаркандского государственного института*

Аннотация. Статья называется «Стратегическое лидерство в литературном наследии Востока: художественно-философская интерпретация образа Александра у пера Навои» и представляет собой глубокий анализ произведений Алишера Навои и изображения в них образа Александра. В статье анализируется образ Александра в творчестве Навои не только как историческая личность, но и как стратегический лидер, а также изучается его образ с художественной и философской точки зрения.

Ключевые слова. Художественно-философская мысль, концепция, методологическая теория, божественная справедливость, духовно-нравственные ценности.

**STRATEGIC LEADERSHIP IN THE EASTERN LITERARY HERITAGE:
ARTISTIC-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE IMAGE OF
"ISKANDAR" IN NAVOI'S PEN**

*Turabekova Laylo Shavkat qizi,
Student of the Samarkand state institute of Foreign languages*

Annotation. The article is entitled "Strategic Leadership in the Eastern Literary Heritage: Artistic and Philosophical Interpretation of the Image of Iskandar in Navoi's Pen", and it presents an in-depth analysis aimed at studying the works of Alisher Navoi and the depiction of the image of Iskandar in them. It also analyzes Iskandar in Navoi's work not only as a historical figure, but also as a strategic leader and studies his image from an artistic and philosophical perspective.

Keywords. Artistic and philosophical thought, concept, methodological theory, divine justice, spiritual and moral values.

Sharq adabiyoti va falsafasi azaldan ideal shaxs, yetuk hukmdor, adolatparvar rahbar obrazlarini yaratish va targ'ib etishga alohida e'tibor qaratgan.[6,17 b.] Bu jihat Alisher Navoiy ijodida ham yorqin namoyon bo'ladi. Xususan, uning "Xamsa" turkumiga kiruvchi "Saddi Iskandariy" asarida Iskandar obrazining yaratilishi orqali muallif faqat tarixiy shaxsni emas, balki ideal hukmdorning badiiy-falsafiy modelini yaratishga uringan.[1,12b.] Sharq adabiy-falsafiy tafakkurida liderlik masalasi doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Xususan, "sulhi kullo" (umumiy tinchlik), "hikmatli hukmronlik", "adolat asosidagi davlat boshqaruvi" kabi tamoyillar Sharq siyosiy falsafasining asosiy ustunlarini tashkil etadi. Bunday g'oyalar faqat nazariy fikrlar bilan cheklanib qolmagan, balki badiiy adabiyotda jonli timsollar orqali ifoda etilgan. Shu ma'noda, Iskandar obrazi Sharq adabiyotida ideal hukmdorning timsoli sifatida shakllangan bo'lib, bu obraz Alisher Navoiy ijodida o'ziga xos badiiy-falsafiy yuksaklikka ko'tarilgan."Saddi Iskandariy" asari nafaqat tarixiy yoki badiiy jihatdan qimmatli, balki unda aks ettirilgan g'oyalar orqali strategik liderlik tushunchasining Sharq tafakkuri doirasidagi talqinini o'rganish imkonini beradi.

Maqola yozilishida Alisher Navoiy tomonidan yozilgan "Saddi Iskandariy" asarining nasriy bayonidan asosiy manba sifatida foydalanildi. Tadqiqotda badiiy-falsafiy tahlil, obraz tahlili, tarixiy-adabiy yondashuv metodlari qo'llandi. Iskandar obrazining adabiy kontekstdagi shakllanishi, uning yetakchilik fazilatlari va axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligi tahlil qilindi. Shuningdek, liderlik tushunchasi bugungi kundagi nazariyalar bilan qiyosiy ravishda yoritildi. Metodologik asos sifatida dastlab Iskandar obrazining manbaalarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Bu borada yunon manbalaridagi Aleksandr Makedonskiyga oid tarixiy faktlar hamda Sharq tafakkurida shakllangan afsonaviy obrazlar o'rganildi. Yunon manbalarida Iskandar ko'proq g'alaba va qudrat timsoli sifatida tasvirlansa, Sharq adabiyotida u komillik sari intiluvchi, dunyo sirlarini anglashga intilgan donishmand shaxs sifatida namoyon bo'ladi [2,35 b.]. „Saddi Iskandariy” dostonida esa bu ikki tendensiya mujassam: Iskandar – zabardast sarkarda, dunyo kezib, turli mamlakatlarni zabit etgan qahramon, ammo ayni paytda u doim hikmat izlovchi, donishmandlarga qulq tutuvchi, adolatni ustun qo'yuvchi rahnamo sifatida gavdalananadi. Metodologik jihatdan obrazning bu ikki qirrasi alohida tahlil qilindi va ular orasidagi uyg'unlik masalasi ko'rib chiqildi. Tadqiqotda Iskandar obrazining boshqa adabiy manbalardagi talqinlari bilan qiyosiy tahlili ham amalga oshirildi. Jumladan, Firdavsiy "Shohnoma"sidagi Iskandar [3,79 b.]. Nizomiy Ganjaviy asarlaridagi Iskandar hamda Qur'onda zikr etilgan Zulqarnayn timsollari o'rganildi. Har bir manbada obraz turlicha: Firdavsiyning Iskandari ko'proq tarixiylikka, Nizomiyniki falsafiy tafakkurga yo'g'rilmagan bo'lsa, Navoiy ushbu ikki yo'nalishni birlashtirgan. Bu esa bizga ideal hukmdor modelining vaqt va makonga qarab qanday o'zgarishini tahlil qilish imkonini beradi. Navoiy tomonidan yaratilgan ideal hukmdor konsepsiysi faqat adabiy obraz emas, balki axloqiy va siyosiy g'oya sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu konsepsiyada hukmdorning mas'uliyati, xalq oldidagi burchi, adolatga asoslangan boshqaruv tizimi, ilmsiz kuchning ojizligi kabi g'oyalar metodik tarzda ochib berildi. Falsafiy metod sifatida qadriyatlar tizimining tadqiqi asos qilib olindi. Dostonning g'oyaviy asosida ilohiy adolat, axloqiy poklik, ilmga va donishmandlikka hurmat, kuch va haqiqatning uyg'unligi singari qadriyatlar mavjud. Ushbu qadriyatlar Iskandarning har bir harakati va qarorlarida namoyon bo'ladi. Masalan, u hikmatli suhbatlarga intiladi, so'fiy donishmandlardan maslahat oladi, tajriba va bilim asosida davlat boshqaradi. Bu jihatdan Navoiy ideal hukmdor

obrazini shakllantirishda islomiy-falsafiy manbalarni, xususan, Qur'on oyatlari, hadislar, tasavvufiy qarashlar va yunon falsafasining ayrim unsurlarini birlashtiradi.[4,91b.] Shu asosda metodologik asos sifatida intertekstual yondashuv ham qo'llanildi – ya'ni, "Saddi Iskandariy"dagi falsafiy g'oyalar boshqa diniy va adabiy matnlar bilan bog'lanib tahlil qilindi.Estetik yondashuv orqali dostonning san'atkorlik darajasi, badiiy tasvirlar orqali g'oyaning qanday ifoda etilgani tahlil qilindi. Masalan, Iskandarning ruhiy izlanishlari, donishmandlar bilan muloqoti, qalbdagi tashvishlar poetik tasvirlar orqali bayon etilgan. Bu esa obrazga chuqurlik va hayotiylik bag'ishlaydi.Navoiy bu asarda g'oyani faqat voqeа bilan emas, balki til, timsollar, ramzlar orqali ifoda etadi. Shu sababli metodologiyada semiotik tahlil – ya'ni timsollar va ramzlarining ma'nosini o'rganish usuli ham ishlatildi. Iskandarning sayohati – bu nafaqat geografik, balki ruhiy va falsafiy sayohat sifatida talqin qilindi.

Navoiy "Saddi Iskandariy" asarida Iskandarning harakatlarini kuch va zo'ravonlik orqali emas, balki aql, hikmat va adolat bilan asoslaydi. U janglarda zo'rliq bilan emas, tafakkur va maslahat bilan g'alaba qozonadi. Iskandarning har bir qarori zamirida chuqur falsafiy o'ylov, ijtimoiy adolat va insonparvarlik turadi. Bu esa uni strategik liderlik timsoli sifatida ko'rsatadi. Iskandar sayohatlari davomida olimlar bilan maslahatlashadi, qadimiy donishmandlardan saboq oladi. Bu holat uning faqat zabardast sarkarda emas, balki ilm-fan va donolikni qadrlovchi rahbar sifatida aks etishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, u davlat boshqaruvida zulm va jaholatga qarshi kurashadi, xalq farovonligi va madaniyat taraqqiyotini maqsad qiladi.Navoiy Iskandar siyoshi orqali musulmon Sharqida hukmdorning zimmasidagi ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy mas'uliyatni ilgari suradi. Obraz orqali yetakchilikning faqat qudrat emas, balki iymon, ilm, sabr va adolat asosida qurilishi kerakligi yoritiladi. Bugungi zamonaviy liderlik nazariyalari bilan qiyoslaganda, Navoiy tasvirlagan Iskandar universal qadriyatlar egasi bo'lgan rahbar timsolidir.Navoyning "Saddi Iskandariy" dostoni faqat tarixiy voqealarni aks ettirish bilan cheklanib qolmay, balki unda falsafiy, axloqiy va siyosiy g'oyalar uyg'unlashgan holda o'z ifodasini topadi. Asarda Iskandar shunchaki g'alabalar qozongan sarkarda sifatida emas, balki o'zini angagan, jamiyat oldidagi burchini tushungan va uni ado etishga intilgan dono rahbar sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, doston voqealari davomida Iskandarning ilm-fan, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarga bo'lgan hurmati yuksak darajada tasvirlanadi. U har bir yurishida olim va donishmandlar bilan maslahatlashadi, davlat ishlarini yuritishda maslahatchilar fikrini inobatga oladi. Bu esa uni Sharq falsafasida ideal hukmdor timsoliga aylantiradi.

Iskandar obrazining o'ziga xosligi shundaki, u kuch va qudratni maqsad emas, balki vosita deb biladi. Navoiy qalamida Iskandar har bir muammoga sabr, tafakkur va maslahat bilan yondashadi. U o'zbek mumtoz adabiyotidagi boshqa qahramonlardan o'zining fikrlovchi, bashariyat taqdiriga befarq bo'lmagan shaxsiyati bilan ajralib turadi. Masalan, u Hindistonga yurish chog'ida faqat zaminni egallash niyatida emas, balki u yerdagi xalqning madaniyati, qadimiy donishmandligi bilan tanishishga intiladi. Shu yo'l bilan u dunyoviy hokimiyat bilan bir qatorda ma'naviy ustunlikka ham erishishni maqsad qiladi.Iskandar obrazida o'z aksini topgan strategik liderlik tushunchasi, zamonaviy liderlik nazariyalari bilan hamohangdir [8,44 b.]. Bugungi kunda liderlikka oid zamonaviy yondashuvlar – transformatsion liderlik, xizmatkor liderlik (servant leadership), ma'naviy liderlik kabi tushunchalar aynan Iskandar siyosida mujassam. Transformatsion liderlik – bu ilhomlantirish, qarashlarni o'zgartirish, ijobiy o'zgarishlarga yo'l ochish demakdir. Iskandar aynan ana shunday lider bo'lib, o'z atrofidagi odamlarni fikrlashga, sabr va adolatga chorlaydi. Uning harakati shunchaki buyruq va nazorat bilan emas, balki shaxsiy ibrat, aql va donishmandlik asosida amalga oshadi.

Navoiy tomonidan yaratilgan bu obraz orqali Sharq falsafasining asosiy tamoyillari – iymon, axloq, adolat, tafakkur va sabr mujassamlashtirilgan. Iskandar turli madaniyat va xalqlar bilan muloqotda bo'ladi, ularning qadriyatlariga hurmat bilan yondashadi. Bu esa uni global qarashga ega, bag'rikeng va madaniyatlararo muloqotni qadrlovchi lider sifatida ko'rsatadi. Sharq adabiyotida bu xususiyatlar bilan ajralib turuvchi obrazlar kam bo'lsa-da, Navoiy bu yo'nalishda chinakam yangilik yarata olgan."Saddi Iskandariy"da keltirilgan voqealar ketma-ketligi, undagi

falsafiy munozaralar, Iskandarning o‘zini anglash yo‘lida boshdan kechirgan ichki kechinmalari va donishmandlar bilan olib borilgan suhbatlari dostonni shunchaki sarguzasht asari emas, balki falsafiy traktat darajasiga olib chiqadi. Iskandar uchun har bir urush saboq, har bir g‘alaba esa mas’uliyatdir. U g‘alaba ortidan shunchaki saltanat qurolmaydi, balki xalq farovonligini ta’minlash, ilmi-ma’rifatni yoyish,adolat va tenglikni qaror toptirishga harakat qiladi. Bunday yondashuv esa uni zamonaviy g‘oyalarga mos, yuksak ijtimoiy ongga ega lider sifatida namoyon qiladi. Bugungi rahbarlar uchun Iskandar timsoli ko‘plab saboqlarni beradi. Birinchidan, rahbarlik faqat buyruq berish emas, balki xizmat qilishdir. Ikkinchidan, adolat rahbarning kuchidir. Uchinchidan, xalq bilan maslahatlashish va ularning dardini tinglash rahbarning eng yuksak fazilatidir. Iskandarning harakati bularning barchasini tasdiqlaydi. U o‘z kuchini odamlarni birlashtirish, ularni ilm va madaniyat sari yetaklash uchun ishlataladi. Navoiy esa bu obraz orqali bizga adolat, tafakkur va insonparvarlik asosida qurilgan liderlikning eng go‘zal namunalarini ko‘rsatadi. Shunday qilib, “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar obrazi strategik liderlik, ijtimoiy mas’uliyat, madaniy bag‘rikenglik va ma’naviy poklik timsolidir. Bu obraz orqali Navoiy Sharqona hukmdor idealini yaratadi va uni badiiy-falsafiy shaklda namoyon qiladi. Iskandar – bu qudrat emas, balki donishmandlik bilan dunyoni boshqargan rahbar; bu xalqni zabit etish emas, balki xalq qalbini zabit etishga intilgan yetakchidir. Alisher Navoiy asarining badiiy-falsafiy teranligi shundaki, u tarixiy shaxs obrazida butun bashariyat uchun doimiy ahamiyatga ega bo‘lgan rahbarlik konsepsiyasini ilgari suradi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” asarida yaratgan Iskandar obrazi – bu Sharq tafakkurida ideal rahbar timsolining badiiy-falsafiy mujassamidir. Obraz orqali muallif hukmdor shaxsining yetukligini adolat, ilm, tafakkur va iymon bilan o‘lchaydi. Iskandarning donoligi, strategik qaror qabul qilish qobiliyati, insoniylik va sabr fazilatlari uni barcha davrlar uchun ibratli liderga aylantiradi. Ushbu tahlillar, bugungi kunda ham davlat boshqaruvi va yetakchilik tamoyillariga muhim falsafiy asos bo‘la oladi. Navoiy yaratgan Iskandar obrazi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy dolzarblikka ega bo‘lgan universal lider timsolidir. U har qanday rahbar uchun ibrat manbai bo‘la oladigan, aql, tafakkur, adolat va insonparvarlik kabi oliy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan obrazdir. Navoiy bu obraz orqali o‘z davridagi va kelajak avlod uchun buyuk ma’naviy xazina qoldirgan. Chunki Iskandar nafaqat sarkarda, balki o‘z xalqini ezbeglik sari yetaklovchi, ilm bilan jaholatni yenguvchi, mas’uliyatni yuragida his qiluvchi ideal rahbar sifatida gavdalananadi [5,33 b.].

Iskandarning qarorlari ziddiyatlari vaziyatlarda ham sabr va iymon bilan pishiq-puxta yechim topishga asoslangan. U jamiyatdagi turli toifa vakillarining fikrini inobatga oladi, olimlar bilan maslahatlashadi, xalq ehtiyojlariga e’tibor beradi. Bu jihatlar zamonaviy demokratiya va islohotlar ruhiga uyg‘un keladi. Shu boisdan ham Navoiy tasvirlagan Iskandar – bu faqat bir davrga oid hukmdor emas, balki barcha davrlar uchun dolzarb bo‘lgan yetakchilik konsepsiyasining badiiy ifodasidir.

Bugungi kunning global muammolari – ekologik inqirozlar, ijtimoiy tengsizlik, urushlar va madaniyatlararo to‘qnashuvlar sharoitida Iskandar singari liderlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarga bunday yuksak fazilatli obrazlarni tanitish, ularning tafakkurida iymon, sabr, bilim va adolatga asoslangan boshqaruv tamoyillarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olib qaraganda, “Saddi Iskandariy” asarining xulosalari hozirgi zamon siyosiy-falsafiy qarashlari bilan hamohangdir. [9,151b] Masalan, strategik liderlik nazariyalarida liderdan kutiladigan asosiy jihatlar – uzoqni ko‘ra olish, xalq bilan muloqot qilish, qadriyatlar asosida boshqaruv yuritish va halollik – barchasi Navoiy tomonidan yaratilgan Iskandar siyosida mujassam topgan. Navoiy asari nafaqat adabiyotshunoslar uchun, balki siyosatshunoslar, tarixchilar, psixologlar, hatto menejment mutaxassislar uchun ham qimmatli manba bo‘la oladi. Chunki unda inson boshqaruvining eng nozik va murakkab jihatlari badiiy obraz orqali ochib berilgan. Asarda kuch ishlatishga asoslangan hukmdorlik emas, balki ma’naviy-axloqiy ustuvorlik targ‘ib qilinadi. Bu esa insoniyat tarixidagi eng samarali boshqaruv usullaridan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asari o‘zbek va jahon adabiyotidagi yuksak badiiy va falsafiy namunadir. Iskandar obrazi orqali ilgari surilgan g‘oyalar

bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki zamon talablari bilan yana-da dolzarbroq tus olgan. Har bir rahbar, har bir ziyoli, har bir yosh bu obrazdan saboq olishi, o‘z hayoti va faoliyatida uni ibrat sifatida qo‘llashi mumkin. Navoiy yaratgan Iskandarning badiiy siymosi, aslida, butun insoniyat uchun ma’naviy yo‘l ko‘rsatkich, barqarorlik va taraqqiyot ramzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
2. Navoiy, A. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.
3. Ganjaviy, N. Iskandarnoma. – Tehron: Mirhossein nashriyoti, 1982.
4. Firdavsiy, A. Shohnoma. – Dushanbe: Irfon nashriyoti, 1987.
5. Qur’on. – Toshkent: O‘zbekiston Musulmonlari idorası, 2004.
6. Xolmirzayev, B. Sharq adabiyotida hukmdor obrazi. – Toshkent: Fan, 2015.
7. Rajabov, A. Alisher Navoiy falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
8. Karimov, S. Sharq adabiyoti va qadriyatlar. – Samarqand: Zarafshon, 2012.
9. Hasanova, D. Sharq adabiyotida strategik liderlik konsepsiysi. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2021, №4.